



# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 2629,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 59,4 ming kishiga yoki 2,3 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 928,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,3%), qishloq aholisi soni 1700,6 ming kishini (64,7 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019-yil yanvar-dekabr


- Aholi soni 59,4 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 73,0 ming nafarni tashkil etdi.
- 10,6 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 27,7 mingta nikoh va 1,9 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Surxondaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



## Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi soni  
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Surxondaryo viloyati hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 384,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 244,0 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rg'on 217,9 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 109,7 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,3 % ni, Qumqo'rg'on 2,5 % ni, va Jarqo'rg'on 2,2 % ni, Qiziriq 2,6 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 1,4 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020-yillar 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

Hududlar	2018-yil	2019-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2569,9</b>	<b>2629,3</b>	<b>102,3</b>
Termiz sh.	145,1	147,2	101,4
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	172,1	176,4	102,5
Angor	129,3	132,3	102,3
Boysun	117,7	119,7	101,7
Muzrabot	138,4	141,4	102,2
Denov	375,7	384,6	102,4
Jarqo'rg'on	213,1	217,9	102,3
Qumqo'rg'on	237,9	244,0	102,6
Qiziriq	169,4	173,9	102,7
Sariosiyo	201,8	206,3	102,2
Termiz	106,7	109,7	102,8
Uzun	170,5	174,3	102,2
Sherobod	188,8	193,2	102,3
Sho'rchi	203,4	208,4	102,5

\*) dastlabki ma'lumot

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 384,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rg'on 244,0 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rg'on 217,9 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 109,7 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,3 % ni, Qumqo'rg'on 2,5 % ni, va Jarqo'rg'on 2,2 % ni, Qiziriq 2,6 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 1,4 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi )

Hududlar	erkak	ayol
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1327,8</b>	<b>1301,5</b>
Termiz sh.	72,4	74,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	90,4	86,0
Angor	66,3	66,0
Boysun	61,2	58,5
Muzrabot	70,1	71,3
Denov	196,1	188,5
Jarqo`rg`on	111,5	106,4
Qumqo`rg`on	120,9	123,1
Qiziriq	87,7	86,2
Sariosiyo	103,0	103,3
Termiz	55,1	54,6
Uzun	89,1	85,2
Sherobod	98,0	95,2
Sho`rchi	106,0	102,4

## Demografik holat

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1-yanvar holatiga, kv. kmga to'g'ri keladigan aholi)

Hududlar	aholi soni	hudud maydoni (ming kv.km)	aholi zichligi kv.km (kishi)
<b>Surxondaryo viloyati:</b>	<b>2629,3</b>	<b>20,1</b>	130,8
Termiz sh.	147,2	0,03	4906,7
<i>hududlar:</i>			
Oltinsoy	176,4	0,57	309,5
Angor	132,3	0,39	339,2
Boysun	119,7	3,58	33,4
Muzrabot	141,4	0,74	191,1
Denov	384,6	1,13	340,4
Jarqo'rg'on	217,9	1,16	187,8
Qumqo'rg'on	244,0	1,94	125,8
Qiziriq	173,9	0,59	294,7
Sariosiyo	206,3	3,83	53,9
Termiz tumani	109,7	0,85	129,1
Uzun	174,3	1,84	94,7
Sherobod	193,2	2,73	70,8
Sho'rchi	208,4	0,72	289,4

## Demografik holat

**Tug‘ilish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 73,0 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 28,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega oshgan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 26,3 promille bo‘lgan).

**Tug‘ilish koeffitsiyenti** 2018-yilning mos davriga nisbatan Termiz shahrida (20,8 promilledan 28,4 promilega), Qumqo‘rgon (26,1 promilledan 29,1 promillega), Uzun (26,7 promilledan 27,9 promillega), Sherobod (24,9 promilledan 26,7 promillega), Sariosiyo (25,5 promilledan 27,7 promillega) kuzatildi.

### Ma‘lumot uchun

**Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.**



Surxondaryo viloyati bo‘yicha tug‘ilganlar soni  
(2018-2019- yil yanvar-dekabr oylari)

Hududlar	2018 y.	2019 y.	O‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>68259</b>	<b>72979</b>	<b>106,9</b>
Termiz sh.	3057	4143	135,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	4601	4868	105,8
Angor	3365	3487	103,6
Boysun	2980	3109	104,3
Muzrabot	3598	3732	103,7
Denov	10625	10981	103,4
Jarqo‘rg‘on	5959	6076	102
Qumqo‘rg‘on	6152	7016	114
Qiziriq	4820	5067	105,1
Sariosiyo	5223	5653	108,2
Termiz	2795	2953	105,7
Uzun	4689	4804	102,5
Sherobod	4732	5096	107,7
Sho‘rchi	5663	5994	105,8

## Demografik holat

Hududlar kesimida tugʻilganlar koeffitsiyenti  
(2018-2019-yillar yanvar-dekabr , ming aholiga nisbatan)


	2018 y.	2019 y.	Oʻsish surʻati oʻtgan yilga nisbatan %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>26,3</b>	<b>28,1</b>	<b>106,8</b>
Termiz sh.	20,8	28,4	136,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	26,8	27,9	104,1
Angor	25,9	26,6	102,7
Boysun	25,3	26,2	103,6
Muzrabot	25,8	26,7	103,5
Denov	27,3	28,9	105,9
Jarqoʻrgʻon	27,6	28,2	102,2
Qumqoʻrgʻon	26,1	29,1	111,5
Qiziriq	28,4	29,5	103,9
Sariosiyo	25,5	27,7	108,6
Termiz	26,2	27,3	104,2
Uzun	26,7	27,9	104,5
Sherobod	24,9	26,7	107,2
Shoʻrchi	28,0	29,1	103,9



### Vafot etganlar

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 10,6 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,2 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan kamayishi Sho‘rchi (4,4 promilledan 4,2 promillega), Qumqo‘rg‘on (3,9 promilledan 3,7 promillega), Termiz tumani (5,0 promilledan 4,9 promillega), Oltinsoy (3,8 promilledan 3,5 promillega) tumanlarida kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo‘yicha vafot etganlar soni  
(2018-2019-yillar yanvar-dekabr oylari)

Hududlar	2018 y.	2019 y.	O‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan +/-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>10698</b>	<b>10565</b>	<b>-133</b>
Termiz sh.	681	664	-17
<i>tumanlar:</i>			0
Oltinsoy	665	613	-52
Angor	573	586	13
Boysun	521	482	-39
Muzrabot	595	569	-26
Denov	1508	1510	2
Jarqo‘rg‘on	935	949	14
Qumqo‘rg‘on	901	894	-7
Qiziriq	608	630	22
Sariosiyo	782	784	2
Termiz	546	532	-14
Uzun	740	708	-32
Sherobod	758	780	22
Sho‘rchi	885	864	-21




## Demografik holat

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 10,6 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 60,4 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,7 % i o'simtalardan, 6,2 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 0,3 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,7 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,5 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 17,7 % tug'ma anomaliyalardan, 0,7 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 7,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 62,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 57,6 ming kishiga (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 57,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
62,4 ming kishi

## Demografik holat

**N i k o h .** 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 27,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payish sur'atlari Qumqo'rg'on (296 kishi), Jarqo'rg'on (232 kishi), Oltinsoy (105 kishi) Termiz tumani (129 kishi) to'g'ri kelmoqda.

**N i k o h d a n a j r a l i s h l a r .** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Denov (21 kishi), Qumqo'rg'on tumani (15 kishi), Sho'rchi (13 kishi) to'g'ri kelmoqda.



### Tuzilgan nikohlar va ajrimlar taqsimlanishi (2018-2019-yillar yanvar-dekabr , o'sish o'tgan yilga nisbatan )



Hududlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>26 830</b>	<b>27 679</b>	<b>849</b>	<b>1 885</b>	<b>1 889</b>	<b>4</b>
Termiz sh.	1 396	1 417	21	194	197	3
tumanlar:			0			0
Oltinsoy	1 788	1 832	44	84	90	6
Angor	1 293	1 353	60	84	80	-4
Boysun	1 032	1 069	37	78	57	-21
Muzrabot	1 390	1 458	68	88	79	-9
Denov	4 111	3 960	-151	291	312	21
Jarqo'rg'on	2 507	2 739	232	162	166	4
Qumqo'rg'on	2 462	2 758	296	125	140	15
Qiziriq	1 919	1 993	74	110	111	1
Sariosiyo	1 986	2 061	75	169	155	-14
Termiz	1 063	1 192	129	85	90	5
Uzun	1 755	1 755	0	152	145	-7
Sherobod	1 974	1 926	-48	127	118	-9
Sho'rchi	2 154	2 166	12	136	149	13

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2019 yil-yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,4 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 13,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,0 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,9 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)  
(2018-2019-yil yanvar-dekabr )

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,5 ming kishi), Jarqo'rgon (minus 0,4 ming kishi), Termiz sh (minus 1,3 ming kishi), Sariosiyo (minus 0,4 ming kishi), qayd etildi.

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	11,9	10,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	13,8	13,4
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,9	-3,0



Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
(76) 223-07-09